

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University


1/2023



1/2023

E-ISSN 2181-1466

9 772181146004

ISSN 2181-6875

9 772181687004

 @buxdu_uz

 @buxdu1

 @buxdu1

 www.buxdu.uz

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2023, № 1

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rribbosari: Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori (O'zR FA tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi)

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ		
Rasulov T.H., Dilmurodov E.B.,	Kompakt qo‘zg‘alishli umumlashgan Fridrixs modelining ba’zi spektral xossalari	4
Ismoilova D.E.	Fermionli fok fazodagi uchinchi tartibli operatorli matritsaga mos kanal operator va uning spektri	9
Jumaev J.J., Tursunova S.F., Ibragimova Sh.E.,	Inverse coefficient problem for heat equation in the bounded domain	15
Djurayev D.R., Turayev A.A., To`rayev O.G.	Bi _{1.7} Pb _{0.3} Sr ₂ Ca _n Cu _{n-1} O _y vismut asosli kupratlarning olinish texnologiyasi	21
Umarov Sh.A.	Shifrlash algoritmlarida kriptobardoshli mantiqiy amallardan foydalanish usullari	25
Ахмедов О.С.	Свободные и вынужденные осесимметричные колебания систем вязкоупругих цилиндрических оболочек	30
Исломов Б.И., Жураев Ф.М.	Локальные краевые задачи для нагруженного уравнения параболо-гиперболического типа, вырождающегося внутри области	34
Амироров С.Ф, Шаропов Ш.А, Сатторов Т.А.	Дифференциал трансформатор датчиклар оддий ва маҳсус структурали ночилик магнит занжирларининг математик моделлари	43
Турдиев X.X., Суяров Т.Р., Наврузова М.Н.	Начально-краевая задача для системы интегро-дифференциальных гиперболических уравнений	50
Tosheva N.A.	Lower bound of the essential spectrum of a family of 3×3 operator matrices	57
Akramova D.I.	Estimates for convolution operators related to A_∞ type singularities	63
Jo‘raqulova F.M.	Bozonli fok fazodagi operatorli matritsaga mos Faddeyev tenglamasi	72
Rasulov T.H., Ne’matova Sh.B.	Umumlashgan Fridrixs modeli kvadratik sonli tasvirining komponentlari	77
Seytov Sh.J., Ochilova G.B.	Баъзи даврий реакцияларнинг математик моделлари	82
Sirliyeva F.A., Khudaybergenov K.K., Muminov Z.E.	Fuzzy neural network and agent technologies in the structural-parametric modeling of technological systems	87
Tosheva N. A., Qodirov S. O.	Python dasturlash tili yordamida matritsa sonli tasvirini kompleks tekislikda tasvirlash algoritmi	93
Хасанов И.И., Хасанов К.Х.	Начально-краевая задача для адвекции - дисперсионного уравнения дробного порядка	100
Husenov B. E.	Poisson representation for $A(z)$ -harmonic functions belonging to some class	107
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Nigmatova L. X.	Lisoniy sistemaning pog‘onaviyligi va unda gipo-giperonimik munosabatlari	116
Sadigova S.I.	Phraseological combinations with ordinal numbers in English	123
Abdulxayrov D.P.	-Gan ekan shaklining mazmuniy ko‘rinishlari	127
Xodjayeva D.I., Hoshimova G.M.	Erkin Vohidov she’rlarida ritorik so‘roq gaplarning o‘ziga xos xususiyatlari	131

Ismatullayeva I.I.	Hozirgi zamon tilshunosligida konseptni o‘rganish metodlari, usullari va klassifikatsiyasi	135
Mehmonova Y. Ch.	Typology of collocations in combinatorial linguistics	139
Nuniyazova Sh. U., Djumabaeva J.Sh.	Comparative analysis in translation of English idioms and set expressions into Uzbek and Russian	144
Rajabov E.E.	O‘zbek va ingliz tillaridagi “oila” tushunchasi konceptual maydonining lingvokognitiv tahlili	148
Ruziyeva N. X.	Zamonaviy tilshunoslikda matn va diskurs talqini	153
Xodjayeva D.I., Safarova M.H.	Ingliz tilini o‘qitishda fonetik interferensiyaning o‘rnini	157
Samandarov G.Y.	Sodda gap ko‘rinishidagi “hasharot” lug‘aviy ma’no guruhlari asosida shakllangan paremalarning o‘ziga xos xususiyatlari	161
Sayfullayev B.N.	Noqardosh tillarda o’zlashtirmalik (o‘zbek va fransuz tillari misolida)	165
To‘yboyeva Sh.R.	Fransuz tilida sodda gap tarkibiy qismlarini tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar yechimi	170
Абдурахманова М.У.	“Кўрлик” касаллигининг ўзбек, рус, инглиз тилларидаги лингвистик-семантик тадқики	174
Ахмедова М.Х.	Ўқув жараёнига тааллуқли ноадабий сўзларнинг психолингвистик хусусиятлари	180
Вахидова Ф.С.	Дискурсда диний туризм ва зиёрат туризми терминларининг воқеаниши	183
Avezov S.S.	A Corpus-based approach to phraseology research	189
Kobilova A.B.	Ingliz va o‘zbek tibbiy perifrazalarining semantiq mikromaydonidagi lingvokulturologik xosliklari	194
Bobokalonov R.R., Narzulaeva D.B.	Vocabulary of the Qur‘an in the object of theolinguistics	203
Nazarova G.P.	Muloqotda gender farq muammolari xususida	210
Raxmatov A.P.	Plusquamperfekt zamon shaklining grammatic ma’nolari va uning kontekstual tahlili (nemis tili misolida)	215
Sayidova G.Y.	Alisher Navoiy nazmiy asarlaridagi o‘xshatishlarning leksik-grammatik tabiatи	221
Rasulov Z.I., Yuldasheva F.E.	Xushmuomalalikning nutq odobida ifodalanishi	232
Бозоров З.А.	Речевая культура в качестве неотъемлемой части языковой культуры личности	240
Мавлонова М.Д.	Инглизча аҳборот технологиялари терминларининг ўзбек тилига ўзлашиш жараёнида маъно торайиши ва кенгайиши ҳодисалари	245
Шарипова А.А.	Луғат корпусини яратиш технологияси	251
Hayotova D.Z.	Tushuncha va so‘z munosabati	255
Mamatova D.M.	Xitoy tilida ta’m bildiruvchi sifatlar tahlili	259
Сафаров Ф.С.	Маънодошлиқ каторидаги сўзлар орасидаги маъновий муносабат ҳақида	266
Akhmedova D.B.	Semantic comments in an explanatory dictionary and their processing as a semantic extension	272

ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

Темирова Дж. Х.	Отражение национальной картины мира в русском и узбекском детском фольклоре	277
Насруллаев Э.Ж.	Алишер Навоий “Хикмат ва ибрат достони”нинг ғоявий таҳлили	284
Шарипова Л.Ф.	Шекспир ва Рауф Парфи сонетларида бадиий тасвир	288

Қаюмова Н.М.	воситаларининг қўлланиши	
Fayziyeva M.Ch.	Amerika va o‘zbek badiiy diskursida sadoqat va xiyonat g‘oyalari talqini	292
Juraqulova G.M.	Biographic elements in “Jane Eyre” by Charlotte Brontë	296
Kadirova N.A.	Complex nature of the term “motif” in literary criticism, and the analysis of one of its variations on the example of the uzbek folk tale “Mokhistara”	300
Rakhmatova M.M., Fayziyeva Sh.R.	Literature review on the analysis of academic integrity challenges in muslim countries	304
Pulatova S.Sh.	Factors leading to family happiness in the short story “A marriage of convenience” by William Somerset Maugham	310
Xudoyev S.S.	Nemis adabiyotshunosligida topishmoq janrining tadqiq-u tavsifi	314
Zokirova N.S.	Tarjimada lingvokognitiv dunyo manzarasi, lingvistik ong va lingvistik anglashning o‘zaro munosabatlari	319
Каримова Д.Х.	Таржимада вариантилилар ва инвариантлилар тушунчаларининг специфик хусусиятлари	324
Мамадијрова Ю.А.	Бадий таржимада меъморий экфрасис матнлар таҳлили	331
Содикова Д.Т.	Муслихабегим Мискин шеъриятининг образлар олами ва уларнинг поэтик функцияси	337
Rakhmatova Sh.B.	Reflection of feminism and ecofeminism in Dorris Lessing’s work “The cleft”	345
Азимова М.С.	Садриддин Салим Бухорий ижодида ғазал жанри	349
Бабаев О.А.	Жалолиддин Румийнинг «Маснавий маънавий» асарининг жаҳон адабиётида ўрганилиши	352
Тўраева Л.О.	Ўрим қўшиқларининг образлар таркиби ва бадий-композицион хусусиятлари	357
Хамдамова С.Б.	Уильям Батлер Йейтс ижодида модернистик шеърий техникаларнинг қўлланилиши	362
Bahronova B.B.	Badiiy adabiyotda ijtimoiy munosabatlar va madaniy hayot talqini	368
Qodirova S.A.	“Devonu lug‘otit turk” va “Zarbulmasal” asarlarida qo‘llanilgan maqollarning qiyosiy-tipologik tahlili	372
Ражабов Т.А.	Замонавий ўзбек шеъриятида бадий кўчимларнинг лисоний-бадий таҳлили	376
Норова Н.Б.	Усмон Кўчкор лирикасида тош ва тупрок образларининг қўлланилиши	380
Qurbanova N.R., Mustafoyeva M.A.	Jahon adabiyotida sonet janri tadriji	384
Sayliyeva Z.R.	Ibrohim Haqqul asarlarida tasavvufga munosabat	389

MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK * TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ**

Olimova M.S.	Huvaydo she’riyatida tasavvuf ohanglari	395
Baxtiyorova G.M.	Ahmad Yassaviy toshbosmalarida Qur’on oyatlari talqini	400

“NAVOIY GULSHANI”

Sayliyeva M.R.	About the artistic world of the great artist	405
-----------------------	--	-----

PEDAGOGICS

Safarli N.T.	Formation and development of higher education institutions in Nakhchivan during the Soviet era	408
---------------------	--	-----

HISTORY

Xaitov Sh. A., Ahmadov A.A.	XX asr boshlarida Rossiya-Afg’iston savdo-sotiqlari aloqalari va Afg’iston armiyasi D.N. Logofet talqinida	415
--	--	-----

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” VA “ZARBULMASAL” ASARLARIDA QO’LLANILGAN MAQOLLARNING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

*Qodirova Saodat Abduraximovna,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi,
Buxoro shahri, O‘zbekiston
s.a.qodirova@buxdu.uz*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug‘otit turk” va Muhammad Sharif Gulxaniyining “Zarbulmasal” asarlarida keltirilgan maqollar o‘zaro qiyosiy-tipologik tahlil qilingan. Maqollarda o‘sma zamon ruhi, dunyoqarashi, kishilarga, mehnatga munosabatning turli xil shakllari o‘z ifodasini topgan. “Devonu lug‘otit turk” va “Zarbulmasal” asarlarida aynan bir xil maqollar uchramaydi, lekin ma’no jihatidan bir-biriga yaqin yoki ayni bir maqolning ekvivalentiga duch kelishimiz mumkin. Shuningdek, “Devonu lug‘otit turk” va “Zarbulmasal” asarlaridagi mazmunan hamohang deb sanalgan maqollar qiyosiy-tipologik tahlil qilinib jadval asosida berildi.

Kalit so‘zlar: asar, maqol, syujet, mazmun, fikr, xarakter, qahramon, moziy, dialog.

Abstract: This article provides a comparative typological analysis of the proverbs presented in the works of Mahmud Kashgari "The Turk lugots Devon" and "Zarbulmasal" by Muhammad Sharif Gulkhani. The spirit of that time, worldview, various forms of attitude towards people and work are expressed in proverbs. In the works "Devonu lughotit Turk" and "Zarbulmasal" we do not find absolutely identical proverbs, but we can meet similar or equivalent proverbs in meaning. Also, on the basis of a comparative typological analysis and a table, proverbs are given in the works "Devonu lug‘otit Turk" and "Zarbulmasal", which are considered to be consistent in content.

Key words: work(written work), proverb, plot(subject), content(meaning), idea, character(manner), hero, moral story, dialogue.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ пословиц, представленных в произведениях Махмуда Каигари «Девону луготит турк» и «Зарбулмасал» Мухаммада Шарифа Гюльхани. Дух того времени, мировоззрение, различные формы отношения к людям и труду выражаются в пословицах. В произведениях «Девону луготит турк» и «Зарбулмасал» мы не находим абсолютно одинаковых пословиц, но можем встретить сходные или равнозначные пословицы по смыслу. Также на основе сравнительно-типологического анализа и таблицы приведены пословицы в произведениях «Девону луготит турк» и «Зарбулмасал», которые считаются согласованными по содержанию.

Ключевые слова: произведение, пословица, сюжет, содержание, мысль, характер, рассказ, диалог.

Kirish. Maqollar xalq donishmandligining yorqin namunasi, ular xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan mustaqil janri sifatida o‘rganiladi. Hatto maqollarni xalq turmush tarziga oid odob-axloq qoidalari deyish mumkin. Xalqning asrlar davomida hayotiy tajribasidan o‘tgan ijtimoy-siyosiy, madaniy-ma’naviy, falsafiy-axloqiy qarashlarining ixcham, lo‘nda va obrazli ifodasi maqol deyiladi. Xalq maqollari ko‘p asrlik yo‘lni bosib o‘tib, avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga o‘tish jarayonida sayqallanib, zamon ruhiga moslashib borgan. Buni bir xil ma’nodagi maqolning turli xil shakli yoki ekvivalenti ko‘pligi ham aytib turadi.

Buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg’ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida turkiycha so‘zlarga izoh berar ekan, o‘z fikrining dalili sifatida turkiylar orasida keng tarqalgan she’riy parchalar: xalq qo‘shiqlari, munozaralar, maqollar, matallar kabi adabiy parchalardan keltiradi. Shu asnoda “Devonu lug‘otit turk” qadimgi turkiy xalqlarning xalq og‘zaki ijodi namunalari saqlanib qolgan ilk yozma manba sifatida qadrlanadi. “Devonu lug‘otit turk”dan keyin maqollarga maxsus e’tibor bergan adib Muhammad Sharif Gulxaniydir. Afsuski, ayni mana shu holat folklorshunosligimizda maxsus o‘rganilgan emas.

To‘g‘ri, Gulxaniyning hayoti va ijodi haqida hozirgacha qilingan ishlar, amalga oshirilgan ilmiytadqiqotlar oz emas. Gulxaniy va uning “Zarbulmasal”i haqidagi ilk ma’lumotlar uning zamondosh adiblari tomonidan yaratilgan tazkira va xotiralarda saqlanib qolgan. Bu borada, ayniqsa, N.P.Ostromov ko‘p xayrli

LITERARY CRITICISM

ishlarni amalga oshirgan. U asar qo‘lyozmalarini izlab, birinchi marotaba uning litografik nashrini amalga oshirgan edi. Aslida keyin nashr etilgan barcha ishlarni mana shu nashrga tayangan, deyish mumkin.

Asarning dastlabki ayrim parchalari nashrini Sadriddin Ayniy va Olim Sharafuddinovlar, keyinroq A.Fitrat amalga oshirgan. Shundan keyin asarning ayrim parchalari turli to‘plam va majmualarga, darslik va o‘quv qo‘llanmalariga kiritila boshlandi. Asar haqida bir qator maqolalar, ayrim jiddiy tadqiqotlar yuzaga keldi.

E’tirof etish kerakki, olimlarimiz bu borada ancha salmoqli ishlarni amalga oshirishgan. Folklorshunos va adabiyotshunos olimlarimiz oldida esa bu borada hali ancha katta yumushlar turibdi.

Bularning barchasi “Zarbulmasal” asarini folklorshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishning nechog‘li jiddiy va dolzarb ekanini ko‘rsatib turadi. “Hozirgi kunda o‘zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida – davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, tibbiyat, madaniyat va san’at sohalarida faol qo‘llanilmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda”ki[1], shu ma’noda u aks etgan adabiyotimiz namunalarini ham har tomonlama chuqur tadqiq qilish zarurligini va dolzarbligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. “Zarbulmasal”ning qo‘lyozma va nashr nusxalari va asardagi maqollarning tadrijiy takomilini ilmiy tadqiq etishdan iborat. Tadqiqot mavzusini yoritishda analitik, qiyosiy-tipologik, tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ma’lumki, “Devonu lug‘otit turk” – ilmiy, qomusiy asar, unda saqlangan 100dan ortiq maqollar asarning lug‘at qismida so‘zlarni izohlash asnosida keltirib o‘tiladi: “Erik – erik er – tirishqoq, g‘ayratli odam; shu maqolda ham kelgan: erik irini yag‘lig‘, ermagu bashi qanlig‘ – tirishqoqning labi yog‘lik, erinchoqning boshi qonlik, chunki tirishqoq ko‘p ishlab, yaxshi taomlar – go‘sht, yog‘lar topadi. Shu bilan u moy oshaydi. Erinchoq o‘zining yalqovligi bilan ishdan qochadi. Xafalikdan boshiga uradi, uni qonatadi. Bu matal yalqovlikni tashlashga, g‘ayrat bilan ishlashga undab aytildi” [2; b. 100]. Bu jihatdan Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida maqollarning ishlatilishi ancha farqlanadi. “Zarbulmasal” – badiiy asar bo‘lib, maqol, matal kabi folklor namunalari asar qahramonlari tilidan berib borilgan: “Anda Ko‘rqush aydi: “Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur”, – degan yaxshilarning masalidur. Boyo‘g‘lining og‘zining bir burchidin chiqar: “Ming chordevor qizimning qalini”, deb. Holo... podshohimiz... Umarxon... zamonlarida... bir bo‘sh chordevor topilmas, uyalurmiz. Nechukkim, aytishlar: “Yolg‘on masal turmas”, “Uyat o‘limdan qatig”[3; b. 156]. Bu uslub qahramonlar xarakterini ochib berishga xizmat qilgan hamda asarning badiiy qiyamatini yanada oshirgan, uslubiy ta’sirchanlikni ta’milagan. Shu jihat bilan “Zarbulmasal” asari XYIII – XIX asr boshlarida – Gulxaniy yashagan davrda o‘zbek xalqi orasida keng ishlatilib kelingan xalq maqol, matal va iboralari saqlanib qolgan muhim yozma manba hisoblanadi.

“Devonu lug‘otit turk” asari bilan “Zarbulmasal”dagi maqollar mazmun-mohiyati bilan bir-biriga o‘xshash bo‘lsa-da, ular bir-biridan til xususiyatlari bilan farq qiladi.

“Devonu lug‘otit turk”da qo‘llanilganmaqollar ancha eskirib qolgan bo‘lsa, ayrim maqollar tarkibi o‘zgarib, ixchamlashib, badiiylik jihatdan sayqallahgani ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Maqollarda ajdodlarimiz qarashlari, hodisalarga bo‘lgan munosabati hamda tafakkuri sezilib turadi. Xalq mana shu maqollar orqali kelajak avlodga saboq beradi. Xalq maqollari yozma adabiyotga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Xalq og‘zaki ijodida maqollarni o‘rganish uni yozib olishdan boshlandi. XII asarda Mahmud Koshg’ariy “Devonu lug‘otit turk” asariga bir qancha maqollar kiritdi, ulardan hozirgacha foydalanib kelamiz.

“Devonu lug‘otit turk” va “Zarbulmasal” asarlarida aynan bir xil maqollar uchramaydi, lekin ma’noujihatidan bir-biriga yaqin yoki ayni bir maqolning ekvivalentiga duch kelishimiz mumkin.

Quyidagi 1-jadvalda ushbu ikki asardan o‘zaro mazmunan hamohang deb sanalgan maqollar keltirilgan. Quyida ushbu maqollarning mazmunan o‘xshashligi qiyosiy-tipologik tahlil qilinadi.

1-jadval

t/r	“Devonu lug‘otit turk”	“Zarbulmasal”
1	“O‘t” degan bilan og‘iz kuymaydi	“Halvo” degan birla og‘iz chuchimas
2	Har kishi o‘zing bo‘lmas, begonaga sir aytib bo‘lmas	Inonmag‘il do‘stingga, somon tiqar po‘stingga
3	Kishi oyog‘ini ko‘rpasidan ortiq uzatsa, oyog‘i uyushadi	Ko‘rpangga qarab oyoq uzat
4	Ho‘kiz bo‘ladigan buzoq belgi berar	Qo‘chqor bo‘lur qo‘zining peshonasi do‘ng bo‘lur, Og‘a bo‘lur yigitning peshonasi keng bo‘lur.

LITERARY CRITICISM

5	Keng to'n to'zimas, kengashli ish buzilmas	Ot olsang, uying birla kengash
6	Qalin bersa, qiz oladi, zarur bo'lsa, qimmat oladi	Bermas qizning qalini ko'p
7	Qo'sh qilich bir qinga sig'mas	Ikki suyuklik bir ko'ngilga sig'mas
8	Yolg'iz g'ozning tovushi chiqmas	Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas.
9	Sinamasa kishi aldanadi, boshda ishning oxiri to'g'risida o'ylamasa yengiladi.	Sinagan yov urushga yaxshi.
10	Otning kifti o'g'liga meros qoladi	Qo'ynidin to'kilsa qo'njig'a.
11	O't tutunsiz bo'lmas, yigit gunohsiz	Aslning xatosi bo'lmas, nojinsning oshnosи.

“Devonu lug‘otit turk” asaridagi “O‘t degan bilan og‘iz kuymaydi” maqoli bilan “Zarbulmasal” asarida uchraydigan “Halvo degan birla og‘iz chuchimas” maqolining izohi aynan bir xil: o‘t va halvo so‘zi qisman antonim bo‘lsa ham, maqol izohlanayotganda bu narsa sezilmaydi. “Halvo degan birla og‘iz chuchimas” maqoli kishiga shirin orzu-xayollar bilan yaxshi yashash, ammo bu bilan ko‘zlangan maqsadga, niyatga yetishish qiyin ekanligini uqtiradi. Bularga yetishmoq uchun harakat qilish, jon kuydirib ishslash, yelib-yugurish, bu yo‘lda uchraydigan qiyinchiliklarga chidash va uni yengib o‘tish kerak deb izohlanadi.

“O‘t degan bilan og‘iz kuymaydi” maqoli esa kishi yomon xayollar bilan yashasa, yomon maqsadni ko‘zlasa, diliga tuggan yomon niyatiga, albatta, yetadi degani emas. Ikkala maqolda ham faqat orzu-xayollar bilan maqsadga erishib bo‘lmaydi, degan fikr ta’kidlanadi. “Devonu lug‘otit turk” asaridagi “Har kishi o‘zing bo‘lmas, begonaga sir aytib bo‘lmas” maqoli bilan “Zarbulmasal” asaridagi “Inonmag‘il do‘stingga, somon tiqar po‘stingga” maqoli deyarli o‘xshash. “Inonmag‘il do‘stingga, somon tiqar po‘stingga” maqoli har qanday odamni ham do‘st deb o‘ylab, sirlarni aytish joiz emas deb ogohlantiradi. Do‘st niqobi ostida yurgan dushman barcha sirlarni bilib olgandan so‘ng u odamni sotib, sirini fosh etib, unga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun duch kelgan har qanday odamga ishonish kerak emas. Avvalo, uni sinab, so‘ngra unga ishonch bildirsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yuqoridagi maqoldan kelib chiqadigan xulosa shu.

“Har kishi o‘zing bo‘lmas, begonaga sir aytib bo‘lmas” maqoli esa hammani ham o‘zingga o‘xshatma, begonalarga o‘zingga ishongandek ishonma, hech kimga siringni aytma, hamma ham senga o‘xshab sir saqllovchi emas degan mazmunni tashiydi. Birov birovning sirini saqlolmaydi, deb xulosa qilish mumkin. Ikkala maqol ham ma’no jihatdan bir xil: “Zarbulmasal” asarida obyekt aniqroq ko‘rsatilgan; ya’ni “Devonu lug‘otit turk” asarida “begona” so‘zi qo‘llanilgan bo‘lsa, “Zarbulmasal” asarida “do‘st” so‘zi qo‘llanilgan. Bu so‘zlar bir-biriga antonim bo‘lgani bilan maqol umumiy izohlanganda ikkita antonim so‘z bir xil ma’no tashishga xizmat qiladi. “Devonu lug‘otit turk” asaridagi “Kishi oyog‘ini ko‘rpasidan ortiq uzatsa, oyog‘i uyushadi” maqoli bilan “Zarbulmasal” asaridagi “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat” maqoli biroz farqlansa-da, deyarli bir xil ma’noni anglatadi.

“Zarbulmasal” asaridagi “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat” maqoli majozan o‘z holingga, mablag‘ingga, imkoniyatingga qarab ish qil degan ma’nolarda qo‘llaniladi. “Devonu lug‘otit turk” asaridagi “Kishi oyog‘ini ko‘rpasidan ortiq uzatsa, oyog‘i uyushadi” maqoli esa kishi o‘z imkoniyat doirasidan ortiq ish qilsa, u ish o‘xshamaydi yoki chala bo‘lib qoladi degan ma’noni bildiradi. Ba’zan odamlar mablag‘i yetmaydigan narsaga ega bo‘lishga intilishadi, natijada, unga yetishish uchun sarson bo‘lishiga to‘g‘ri keladi. Ikkala maqolda ham mazmun ayni: faqat Koshg’ariy maqolida sabab hamda natija aniq ko‘rsatilgan, Gulxaniy qo‘llagan maqol esa umumiy mazmunga ega.

“Devonu lug‘otit turk” asaridagi “Ho‘kiz bo‘ladigan buzoq belgi berar” hamda “Zarbulmasal” asaridagi “Qo‘chqor bo‘lur qo‘zining peshonasi do‘ng bo‘lur, Og‘a bo‘lur yigitning peshonasi keng bo‘lur” maqollari mazmunan o‘xshash. “Bola boshidan ma’lum” deganlaridek, ho‘kizning bolasi ham kichkinligidan qanday bo‘lishi bilinadi, ko‘rinadi. Gulxaniy o‘z asarida qo‘llagan maqolida bu tushunchani kengroq yoritadi: qanday belgi berishini ta’kidlaydi; qo‘chqor bo‘ladigan qo‘zini peshonasidan bilish mumkinligi, ya’ni peshonasi do‘ng bo‘lishini yozadi. Inson bolasining kelajakda qanday shaxs bo‘lib yetishishini uning peshonasidan bilish mumkinligi aytilgan. Peshonasi keng bola voyaga yetganida yetuk shaxs bo‘lib yetishishi haqida qariyalar ham ko‘p gapirishadi. Demak, qadimdan og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan maqollar bekorga shu paytgacha saqlanib qolmagan, chunki ular orqali inson ongiga yetkazilayotgan tushunchalar o‘z isbotini topib kelmoqda.

Mahmud Koshg’ariy asarida qo‘llangan “Keng to’n to‘zimas, kengashli ish buzilmas” maqoli Gulxaniy asarida boshqacharoq qo‘llanilgan: “Ot olsang, uying birla kengash”. Inson har qanday masala bo‘yicha kimdandir maslahat olishi, kim bilandir kengashishi kerak. Maslahat bilan qilingan ish yaxshi samara beradi. Yoki aksincha bo‘lsa, ya’ni inson o‘zboshimchalik qilib, hech kimdan hech qanday fikr

LITERARY CRITICISM

so‘ramasdan biror ishni boshlasa, u ish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Kishi biror narsa xarid qilayotganda oila a’zolari bilan maslahatlashib, so‘ngra xarid qilgani ma’qul. Shundagina u buyum kishiga baraka keltiradi. Aksincha bo‘lsa, ya’ni kishi buyumni maslahatsiz, o‘zboshimchalik bilan olsa, aldanib qolishi yoki sifatsiz mahsulot olishi ehtimoli yuqori. Shuning uchun ham azal-azaldan dono xalqimiz har bir ishni maslahat bilan qilishni afzal ko‘rgan. Hatto bunday holatlar ko‘p bo‘lgani uchun “Maslahat oshi” degan tushuncha ham keng qo‘llaniladi. “Maslahat oshi”ga yig‘ilganlar o‘z shaxsiy fikrlarini birma-bir bayon qilishadi va yakuniy xulosaga kelishadi. Shuning uchun ko‘plab asarlarda, xalq og‘zaki ijodi namunalarida shu an’anani kanda qilmaslikka chorlovlarni ko‘plab uchratamiz.

“Devonu lug‘otit turk” asaridagi “Qalin bersa, qiz oladi, zarur bo‘lsa, qimmat oladi” maqolining mazmuni “Zarbulmasal” asaridagi “Bermas qizning qalini ko‘p” maqoliga mos keladi. Bu ikki maqol mazmunan bir-biriga mos kelmasa-da, natija jihatidan bir-biriga o‘xhash. Xalqimizdagi kelin olishda “qalin berish” urf-odati hozirgacha davom etib kelmoqda. Qalin puli “sut haqqi” ham deyiladi. Hozirgi davrda, asosan, pul ko‘rinishida beriladi, lekin o‘tgan davrlarda qalin biror-bir buyum yoki mulk ko‘rinishida berilgan. Masalan, “Zarbulmasal” asarida Yapaloqqush o‘z o‘g‘li KulankirSultonni uylantirish maqsadida Boyo‘g‘li va Boyqushlarning qizi Gunashbonuga sovchi qilib Ko‘rqushni yuboradi. Bahs va tortishuvlardan so‘ng qiz tarafga beriladigan qalin miqdori ming chordevorni Buxoro hududlaridan topib berishi mumkinligini aytadi. Asarda qalin berish motivi orqali ham xalq urf-odatlari yoritilgan, ham obrazlarning xususiyatlari ochib berilgan. Bunday urf-odatlar natijasida yuqoridagi maqollardan foydalanishga ehtiyoj tug‘ilgan. Gulxaniy qo‘llagan maqolda aytishicha, ota-oni qizini kelgan sovchiga berishni xohlamasa, qalining miqdorini oshiradi. Koshg’ariy qo‘llagan maqol esa yuqoridagi maqolning mantiqiy davomi sifatida ko‘rinadi: qalin miqdori ko‘p bo‘lgan qizni olish anchagina qiyinchilik tug‘diradi, ammo o‘sha qizga erishishni judayam xohlagan yigit yoki uning oilasi qalin miqdori qanchalik qimmat va ko‘p bo‘lmisin, albatta, topib beradi va qizni xonardoniga kelin qilib olib keladi. Bunday urf-odat va an’analar ko‘plab asarlarda qadim zamondan to hozirgacha o‘z o‘rnini yo‘qotmay kelmoqda.

Xulosa. Biz qomusiy olim Mahmud Koshg’ariy tuzgan turkiy tildagi ilk nodir lug‘atida ham og‘zaki, ham yozma adabiyotning o‘ziga xos namunalarini, ayniqsa, og‘zaki ijodga oid ko‘plab xalq maqollarining qayd etilganini, shu sabab bilan ularning bizning zamonamizgacha ham yetib kelganini yaxshi bilamiz. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida ham ko‘plab og‘zaki ijod namunalarini, xususan, xalq maqollari yo asl holida yoki biroz o‘zgarishlar bilan qo‘llangan. Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari: Ahmad Yassaviy, Nosiriddin Rabg‘uziy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiyalar ijodida ham shunday hodisa kuzatiladi. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan maqollarning o‘zi bir olam. “Devonu lug‘otit turk” dan keyin maqollarga maxsus e’tibor bergen adib Muhammad Sharif Gulxaniydir. Mahmud Koshg’ariy umri davomida qilgan mashaqqatli mehnati evaziga qomuschi olim bo‘lib tanildi. U turkiy til grammatikasini ishlab chiqqan biringchi tilshunos olimdir. Turk-arab lug‘atining biringchi namunasi ham uning nomi bilan bog‘liq. “Devonu lug‘otit turk” Mahmud Koshg’ariy qoldirgan va turkiy xalqlar uchun bebafo bo‘lgan qomusiy asardir.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонуни қабул қилинганигининг ўттиз йиллигини кенг ниишонлаши тўгрисида”ги ПК-4479-сон Қарори (Lex.uz интернет нашири). – 2019 йил, 4 октябрь.
2. Маҳмуд Кошгари. Девону луготит турк. – 100-б. // www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Гулханий. Зарбулмасал. “Ўқитувчи” нашириёти. – Тошкент, 1972. – 156-б.
4. Кодирова С. А. Жанровые особенности “Зарбулмасала” //современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2021. – С. 97-99.
5. Saodat K. ANCIENT PROVERBS //European Scholar Journal (ESJ) ISSN. – С. 2660-5562.
6. Abdurakhimovna K. S., Dilchiroy A. Ancient Proverbs //European Scholar Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 95-99.
7. Кодирова С., Одилова М. Қадимий мақоллар таснифи //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1036-1040.
8. Abdurahimovna Q. S. “Zarbulmasal”–maqsadni majoz yo‘li bilan ifodalashga qaratilgan hikoyat //барқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 363-365.
9. Abdurakhimovna K. S. Poetics of Proverbs //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 303-307.
10. Abdurakhimovna K. S. Main Subject way of "Zarbulmasal" //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 286-290.